



IQTIDORLI TALABALARNI ANIQLASH VA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNI UZLUKSIZ TIZIMINI TASHKIL ETISH

GulDPI.PhD.,G.B.Kurbanova.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10116047>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 7-noyabr 2023 yil
Ma'qullandi: 10-noyabr 2023 yil
Nashr qilindi: 11-noyabr 2023 yil

KEYWORDS

Kalit so'zlar: Iqtidorli, ijodiy, malakali, kadrlar, tizim, ilm-fan, innovatsion, integratsiya, kompazitsiya, kommunikativ, funksiya, biznes, menejment.

ABSTRACT

Ushbu maqolada oly o'quv yurtlarida iqtidorli talabalarini aniqlash, tanlash va malakali kadrlar tayyorlash uchun bajariladigan ishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish masalalari yoritilgan.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishish uchun uning turli yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lismi zarur. Zamonaviy kompyuterlarning imkoniyatlari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanmay ilm-fan soxasida yuksak marralarga erishib bo'lmay qoldi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni ilm-fan sohalariga keng qo'llash malakasiga ega bo'lismi uchun esa xorijiy tillarni mukammal bilish talab qilinmoqda. Ilm-fanning erishgan yutuqlarini chuqur o'rganib, ularni yanada rivojlantirishga hissa qo'sha olishi uchun, bu sohaga kirib keluvchi yoshlar yuksak qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo'lishi, yuqori malakali ustozlar bilan hamkorlikda ilmiy yo'nalishni maqsadli tanlashi, faoliyatini zamonaviy metodologiya, tizim, texnologiya va dasturlar asosida yuritishi zarur.

Respublikamiz ta'lim tizimining yoshlarni ilm-fan sohasiga tanlov asosida jalb etish, ularni istak, imkoniyat va qobiliyatlarini maqsadli yo'naltirish, ilmiy faoliyatni kompleks dasturlar asosida tashkil etish tajribasi va erishilayotgan natijalarning salmog'i ortib bormoqda. OTMlarda iqtidorli yoshlar bilan ish olib borish dastur va nizomlari ishlab chiqilgan, tashkil etilgan iqtidorli yoshlar akademiyalari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan umumiy nizom va dasturlar asosida faoliyat yuritishmoqda. Natijada ilm-fan, madaniyat, sport, zamonaviy texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqa sohalarda yuqori natijalarga erishayotgan yoshlarning soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Bu boradagi ishlarning sifat va samarasini yanada oshirish metod, tizim va texnologiyalarini yaratish ustida OTMlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqotlarning asosiy maqsadlari jumlasiga iqtidorli talabalarini bakalavriyat yo'nalishida o'qishi davomida ilmiy faoliyat bilan uzluksiz va samarali shug'ullanib tasdiqlangan ilmiy ish mavzusi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishish bilan bir qatorda kelajakda mustaqil ilmiy faoliyat yuritish malakasini egallashini taminlaydigan tadbirlar tizimi va texnologiyasini yaratish kiritildi. Tahlillar tadqiqotning maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish tashkiliy choralarini va metodlari ni takomillashtirish ustida izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatdi.

1. Yoshlarda ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishish orzu, istak, havas va maqsadlarni shakllantirish, bu sohaga ularning qobiliyat va imkoniyatlarini baholab jalg etish hamda maqsadli yo'naltirish dastur va metodlarini qo'llashning samarali tizimini belgilash.

Ilm-fan sohasida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan iqtidorli talaba bu sohaning istalgan yo'nalishiga birinchi qadamni qo'yishdan oldin uning qay darajada rivojlanib borayotgani, echimini kutayotgan dolzarb muammolari, keljakda yuksak marralarga erishishi uchun bu sohaning ko'p qirralarini mukammal egallashi zarurligi haqida bir oz bo'sada tasavvur va tushunchalarga ega bo'lishini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

2. Yoshlarni ilm-fanning insoniyat uchun katta ahamiyat kasb etuvchi ustivor yo'nalishlarida mehnat qilib yuksak natijalarga erishishini ta'minlovchi ilmiy faoliyat metod va texnologiyalarini joriy etish.

3. Olim va mutaxassislarni yoshlarni ilm-fanning yuksak cho'qqilari sari etaklashning zamonaviy metod va texnologiyalarini mukammal egalashi va amaliyotga joriy etishini ta'minlovchi chora-tadbirlarni takomillashtirish.

4. Yoshlarni tarbiyalash va ilm-fan soxasida yuksak marralarga olib kelishi tarixdan ma'lum bo'lgan ustoz-shogird metodini samarali qo'llash va bunday vazifani amalga oshirish malakasini mukammal egallagan iqtidorli yosh olimlarni tayyorlashning zamonaviy tizim va metodlarini joriy etish.

5. Yoshlarning ilm-fan soxasida erishgan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, Xalqaro grantlar va innovatsion loyihalarni bajarishda faol ishtirok etish hamda bozor iqtisodiyoti sharoiti talablari asosida samarali faoliyat yuritish malakasini shakllantirish metod va texnologiyalarini takomillashtirib joriy etish va b.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab quvvatlash, ularni iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-shvroitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ulg'ayib kelayoyotgan yosh avlodning ilm egallahga bo'lgan ishtiyoqi va intelektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohatlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan rag'batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalg qilish, jahon miqyosida vatanimiz dovrug'ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodlarni tarbiyalashimiz zarur. Buning uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash, ular faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan ta'minlab borish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ular asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiya va qo'llanmalar ishlab chiqish. Yoshlar o'rtasida mahalliy va xalqaro shu jumladan, nodavlat fan olimpiadalarni tashkil etish ularning xalqaro olimpiadalarda ishtirokini ta'minlash. Yuqori malakali mutaxassislarni jalg qilgan holda olimpiadalar uchun doimiy yangi nazorat materiallarini ishlab chiqish, xalqaro olimpiadalari ishtirokchilarini yuqori malakali mutaxassislar. Shu jumladan, olimlar, professor-o'qituvchilar, xorijlik mutaxassislarni jalg qilgan holda tayyorlash.

Respublika Oliy ta'lif muassasalarida innovatsion korparativ hamkorlik integratsiyasini amalga oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda ta'lif inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etishyu raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko'rishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Ko'pgina mamlakatlarda oliy maktabning oshib borayotgan rolini hisobga olgan holda uni rivojlantirish strategiyasi milliy strategiya ustuvorliklari bilan belgilanadi va mazkur strategiya OTM sifatini oshirish hamda uni imkoniyatini kengaytirishga yo'naltirilmoqda.

O'zbekistonda bozor islohatlarini boshlanishi yangi sharoitlar oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlash tuzilmasi, ularning bilim va ko'nikmalariga bo'lgan talabni o'zgartirdi. Endilikda yangi bilimlarni amalda qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko'lamenti tushuna oladigan kadrlarga talab ortib bormoqda. Bular to'g'ri qaror qabul qila oladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda OTM va ish beruvchilar orasidagi hamkorlikda turli muammolar mavjud. OTM o'z bitiruvchilarini bilimdon deb hisoblasalarda, ular ish beruvchi talablariga aksariyat holatlarida etarli darajada javob bermayaptilar. Ko'pgina bitiruvchilar boshqa mutaxassislik bo'yicha ishslashga yoki qayta tayyorlov kurslarida o'qishlariga to'g'ri kelyapti. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, OTM va potentsial ish beruvchi o'rtasidagi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

OTM, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi – OTM, fan va ishlab chiqarishdagi yutuqlar va salohiyatlardan birgalikda foydalanish. Avvalo tayyorlash muhiti, malakani oshirish va qayta tayyorlash hamda birgalikdagi ilmiy izlanishlar olib borishda o'z ifodasini topadi. Amaliyotda integratsiya deganda, bir maqsadda birlashgan bir necha subektlarni birgalikda ish olib borishi tushiniladi. Integratsiya turli soha va darajalarni o'z ichiga olgan holda o'zida kompazitsion va kommunikatsion funktsiyalarini namoyon etadi.

Kompazitsion funktsiya – integratsiyani tarkibi va strukturasi, birlashgan subektlarni norasmiy va normativ chegaralarni va ularni mutaxassisliklarini birlashtiradi.

Kommunikativ funktsiya - subektlar aro koperatsiyalar shakli va tarkibini, aloqa va o'zaro birlashmalarini, ularning printsip va mexanizmlarini yangi sharoitlarga moslashuvni ifodalaydi.

Bugungi rivojlanish davrida jahonda "uchlik speral" ilmiy ishlab chiqarish interatsiyasi modeli keng tarqagan bo'lib (OTM ishlab chiqarish korxonasi muassasalari – fanlar akademiyasi institutlari) fanlar akademiyasi – oliy ta'lif – ishlab chiqarish korxonalari.

OTM va korxona hamkorligi:

1. korxonani qiziqishi (malakali kadrlarni doimiy ishga olish, amaliy tayyorlash maqsadida talabalarni vaqtinchalik ishga olish, tadqiqot va ishlab chiqarishga talabalarni jalb qilish, ilmiy ishlab chiqarish va maslahatlarga professor-o'qituvchilarni jalb qilish, malakali mutaxassislar tayyorlashda ish beruvchi so'rnini kuchaytirish):

2. OTM (kafedra) qiziqishi (bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qatnashish, aniq kurs va diplom ishlarini korxona muammolari bilan bog'lash, mutaxassislarini tayyorlashda ish beruvchi monitoringini olib borish, talabalarni amaliyot bazasi bilan ta'minlash, tadqiqot

va ishlab chiqarishda buyurtmalar olish, korxona ishchilarini qayta tayyorlashga qabul qilish)

3. Talabaning qiziqishi (chuqur bilimga ega bo'lish, aniq mutaxassisilik bo'yicha malakaga ega bo'lish, aniq yo'nalishda ilmiy ish olib borish, ma'lum ko'rinishdagi rag'batlanish, ish bilan ta'minlanish)

Yuqorida keltirilgan tizimdan quyidagilar talabaning malakasiga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi:

1. Umum OTMlararo strukturalar ta'siri
2. Mutaxassislik kafedraning ta'siri, jumladan:
 - Past kurs talabalarini mutaxassislikka jalb qilish tizimi;
 - Etakchi kurs talabalarini tayyorlash tizimi;
 - O'qituvchilar ta'siri;
 - Maxsus ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni ijtimoiy qo'llash tizimi.
3. Biznes va menejment vakillarining ta'siri
4. Ota-onalarning ta'siri
5. O'qituvchilarning ta'siri
6. OTMning ichki reytinggi

Hozirgi rivojlanish vaqtida malakali talaba o'z ustida ishlashi shaxsini o'stirishi lozim bo'ladi. Chunki hozirgi kunda ishga joylashishdagi talablar juda yuqori. Malakali talaba o'qishni bitirgandan so'ng mutaxassisligi bo'yicha kafolatlangan ish joyiga ega bo'lishi kerak va kelajakda o'z mutaxassisligi bo'yicha etuk mutaxassis, xar tomonlama raqobatbardosh bo'lishi, ham bilim jihatdan, ham shaxs sifatida kompetentli bo'lib etishishi kerak.

OTMdha korxona muammolarini o'rganish, ushbu muammolar asosida malakaviy bitiruv ishlariga ilmiy mavzular berish kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi yaratilgan va 2019 yil 8 oktyabr PF -58G'47 sonli Prezident farmoni bilan tasdiqlangan. Ushbu farmonda quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

Ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish.

Talaba yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilga kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotgan tadbiq etish.

Oliy ta'lim ilmiy izlanuvchi talabalarining yuqori impakt – faktorga ega, nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga ixtiboslik ko'rsatgichlarini oshishi shuningdek respublika ilmiy jurnallarining xalqaro ilmiy texnik bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash. Shu bilan birgalikda ushbu farmon bilan oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi va 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ham tasdiqlangan. Ushbu yo'l xaritasi orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan.

Konseptsiyada quyidagi vazifalar bajarish ko'zda tutilgan:

- Iqtidorli yoshlar orasidan oliv ta'lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmini yaratish;
- Oliy ta'lim muassasalarini ilmiy faoliyati xududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqib tashkil etish, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyatini yo'lga qo'yish;
- Innovatsion faoliyat tadqiqot natijalarini amaliyatga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy tadqiqot ishlariiga iqtidorli yoshlarni jalb etish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustaxkam integratsiyasini ta'minlash;
- Ilmiy tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari mavjud muammolar echimiga qaratilishini ta'minlash;

Bundan tashqari ushbu konseptsiyada oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlaridan, quyidagi vazifalarni bajarish zarurligi belgilab berilgan;

1. Oliy ma'lumotlilar tayyorlash sifatini oshirish
2. Ta'lim jarayoniga raqamlı texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish
3. Ilmiy tadqiqot ishlari natijadorligi oshirish
4. Yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fani innovatsion infratuzilmasini shakllantirish
5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini oshirish
6. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyutmachilarini faol jalb etish

Yuqorida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish Konseptsyaning bajarilish natijasidir. Bu vazifalarni bajarishda xar bir kurs iqtidorli talabalari bilan o'tkaziladigan tadbirlar tuzilishini quyidagicha belgilash mumkin.

1 – kurs talabalari bilan o'tkaziladigan tadbirlar tizimi

Talabalarni Mustaqillik yillarida ilm-fanning yutuqlari, zamonaviy texnika, texnologiyalarni samarali qo'llab mamlakatimizda erishilgan yutuqlar bilan yaqindan tanishtirish.

Talabalarni mamlakatimizda iqtisodiyot, madaniyat, ilm-fan, texnika, texnologiya, sanoat, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, eklogiya, tabiiy boyliklardan samarali foydalanish kabi ustivor yo'nalishlarni rivojlantirish borasida erishilgan yutuqlar va amalga oshirilishi rejalahtirilayotgan davlat dasturlari bilan tanishtirish, hamda ishga tushirilgan sanoat korxonalari, yaratilgan yirik inshootlar, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan kompleks va maydonlarga sayohatlarini uyushtirish. Bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida talabalar Mustaqillik yillarida Respublikamizning erishgan yutuqlari va amalga oshirishili rejalahtirilayotgan davlat dasturlari bilan yaqinlan tanishadi, ularning samarali mehnat qilish va yaratuvchanlikka bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Talabalarni buyuk allomalarimiz o'z davrida ilm-fanni yuksaltirishga qo'shgan yuksak xissalari bilan tanishtirish. Buyuk allomalarimiz Al Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Amir-Temir, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahreddin Muxammad Bobir va boshqalarning o'z davrida ilm-fanni rivojlantirishga qo'shgan yuksak hissalari haqida suhbat va seminarlar tashkil etish, ularning nomlari bilan yuritiladigan maydonlar, tarixiy joylar, muzeylar, axborot

resurs markazlari va boshqa maskanlarga sayoxatlar uyushtirish. Natijada talabalarning buyuk ajdodlarimizning ilm-fanni rivojlantirishga qo'shgan xissalari, ularning hayoti va ijodi to'g'risidagi bilimlari, hamda ilm-fan sohasida faoliyat yuritishga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

Talabalarni mamlakatimizning ta'lif to'g'risidagi Qonunlari, ta'lif olayotgan OTM strukturasi va ta'lif yo'nalishlari bilan yaqindan tanishtirish. Talabalarni O'zbekiston Respublikasining ta'lif va tarbiya soxalariga doir Qonunlarida belgilangan yoshlarning xuquq va majburiyatları, ta'lif bosqichlari, davlat ta'lif standartlari kabi rasmiy xujjatlar, ta'lif olayotgan OTMning tarixi, mavjud ta'lif yo'nalishlari, umumiy faoliyati va o'quv ishlarini tashkil etish strukturalari bilan yaqindan tanishtirish.

O'quv ishlarini tashkil etish, o'quv adabiyot va qo'llanmalari yaratish o'quv markazlari, laboratoriya va ustaxonalarini tashkil etishda yuksak natijalarga erishgan ustozlari – mohir pedagoglari bilan uchrashuvlarni o'tkazish. Axborot resurslar markazi, o'quv laboratoriya hamda ustaxonalariga tashriflar uyushtirish.

Natijada talabalar o'zlarining mamlakatimiz Qonunlarida belgilangan xuquqlari, ta'lif bosqichlari va davlat ta'lif standartlarida belgilangan qoida va talablarga amal qilishga o'rghanadi.

Ta'lif olayotgan OTMning tarixi, mavjud ta'lif yo'nalishlari, umumiy va o'quv ishlarini tashkil etish tizim, nizom va tartiblari, mavjud imkoniyatlar – axborot resurlar markazi, o'quv markazlari, laboratoriya va ustaxonalar, mohir pedagoglar va ularning erishgan yutuqlari bilan yaqindan tanishishga muyassar bo'lishadi.

Talabalarni OTMning ilmiy ishlarni tashkil etish tizimi va bajaradigan ilmiy ishlarining yo'nalishlari bilan tanishtirish. Mamlakatimiz Qonunlarida belgilangan ta'lif bosqichlari, OTMning ilmiy ishlari yo'nalishlari, ularning rivojlanish tarixi, xozirgi kunda tadqiqot olib borilayotgan sohalari, ilmiy ishlar bajarish imkoniyatlari, mavjud ilmiy markaz, bo'lim va laboratoriyalari bilan tanishtirish.

Bunday tadbirlarni joriy etish talabalarga mamlakatimizning tegishli Qonunlarida ilm-fan sohasida faoliyat yurituvchilar uchun belgilangan xuquq va majburiyatlar, hamda OTM mavjud imkoniyatlar bilan tanishish va ilmiy faoliyat haqida tushunchalarga ega bo'lish imkoniyatlarini beradi.

Talabalarni OTMning ta'lif va ilmiy ishlari yo'nalishlari bo'yicha erishilgan asosiy natijalar bilan tanishtirish.

OTMning ta'lif va ilmiy ishlari yo'nalishlari bo'yicha Respublikamizning Fanlar akademiyasi va sohalarida hamda horijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatib yuksak natijalarga erishgan olim va mutaxassislarining hayoti va ijodi haqida suhbat va seminarlar tashkil etish.

Talabalar OTMning ta'lif va ilmiy ishlari yo'nalishlari bo'yicha yuksak natijalarga erishgan Respublikamiz va xorijiy mamlakatlarning olim va mutaxassislarining hayoti va ijodi bilan tanishadi. OTM ta'lif va ilmiy ishlar yo'nalishlarining dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ilm-fan sohasida egallagan o'rni haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

Ilmiy ish bajarish istagini bildirgan talabalarning qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga olib maqsadli yo'naltirish. Talabalar o'qishni bitirgandan so'ng ishlashi mumkin bo'lgan soxa va OTM professor-o'qituvchilari hamkorlikda ish olib boradigan korxonalarning rahbar va etakchi mutaxassislari bilan uchrashuvlarni tashkil etish, ilg'or korxonalar, turli ta'lif va ilm maskanlariga sayohatlarini uyuştirish. Buning natijasida talabalar o'zлari taxsil olayotgan kafedralarning Respublika olimlari va korxonalar bilan hamkorliklari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi, keljakda ishlaydigan turli korxonalar bilan yaqindan tanishadi. Talabalarda ilmiy yo'nalish, mavzu va ustoz tanlashda kerak bo'ladigan axborotlar banki paydo bo'ladi.

Ilmiy ish bilan uzlusiz shug'ullanib, ta'lifning navbatdagi bosqichlarida o'qish istaklari bildirgan talabalarning qobiliyat va imkoniyatlarini baholash. Talabalarni informatika, kompyuter savodxonligi, axborot texnologiyalari va xorijiy tillar bo'yicha bilim darajalarini sinab ko'rish, suhbat o'tkazish va yozma ish yozdirish orqali ularning bilimlari va o'z fikrlarini bayon qilish qobiliyatlarini baholash.

Talabalarning ota-onalari bilan suhbat o'tkazib, farzandlarini keljakda o'qishni davom ettirib ilmiy ish bajarish bilan shug'ullanishiga roziligini aniqlash.

Bunday tadbirlarning natijalari, birinchi navbatda, ustozlarga shogird, ilmiy yo'nalish va mavzu tanlashda ularning bilimlari, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga olish uchun xizmat qiladi.

Talabalarga ilmiy yo'nalish, mavzu va ilmiy rahbar tanlash imkoniyatlarini yaratish. Talabalarni o'zlariga ustoz etib tayinlanishi rejorashtirilayotgan olimlar bilan o'zaro uchrashuv va suhbatlarini tashkil qilish, ustozlar taklif etayotgan ilmiy yo'nalish va mavzularning annotatsiyalarini tarqatib berish. Natijada talabalar o'zlarining istaklari, qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy yo'nalish, mavzu va ustoz(lar) tanlaydi.

Shogirdning o'quv va ilmiy ishlarni samarali bajarish reja va dasturlarini yaratish. Ilmiy rahbar(lar) va talaba hamkorlikda bakalavriyat yo'nalishida o'qish davomida bajaradigan ilmiy-ijodiy ishlarning dasturi va kalendar rejasini ishlab chiqib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlaydi. Ilmiy rahbar(lar) va guruh murabbiylari ilmiy ish bajaradigan talabaga fanlarni o'zlashtirishi, o'z vaqtidan va imkoniyatlaridan samarali foydalanishni rejorashtirishda amaliy yordam ko'rsatishadi, hamda ilmiy ish bajarish dastur va rejalarini uzlusiz bajarilishini taxlil va nazorat qilib borishadi.

Iqtidorli talabani ilmiy ish mavzusiga oid manbalar bilan tanishtirish. Ilmiy rahbar(lar) iqtidorli talabalarining tasdiqlangan ilmiy ish mavzulariga oid yangiliklar, xabarlar, maqolalar chop etiladigan Respublika va xorijiy mamlakatlarning jurnallari, Internet saytlari, elektron kutubxona va jurnallar ro'yxatlarini berishadi. Adabiyotlarning qaysilarini qay darajada o'zlashtirishi, o'zlashtirish ketma-ketligi va muddatlari aniqlanadi.

Iqtidorli talabalarga ixtiro, yangilik tushunchalari, mualliflik xuquqlari, mualliflikni muxofazalovchi amaldagi Qonunlar, patent va mualliflik guvohnomalari, ularning mohiyatlari tushuntiriladi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida iqtidorli talabalar ilmiy ishi mavzusiga doir adabiyotlarning ro'yxati, ularni o'zlashtirish tizimi va darajasini bilib olishadi. Bu o'z navbatida

iqtidorli talabalarga ilmiy adabiyotlar bilan tanishish uchun sarflanadigan vaqt va ish xajmini samarali sarflash imkoniyatini yaratadi.

Iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi tanlovida ishtirok etishga tayyorlash. Iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi tanlovi talablari bilan tanishtirish, oldingi yillari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sovrindori bo'lgan bakalavr, magistr va doktorantlar bilan uchrashuvlarini o'tkazish, stipendiya tanlovida ishtirok etish dastur va rejalarini ustoz va shogirdlar hamkorligida ishlab chiqish, hamda ularni bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish.

Iqtidorli talabalarni Al Beruniy, Al Xorazmiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Ibn Sino kabi buyuk ajdrodlarimiz nomlari bilan yuritiladigan va boshqa O'zbekiston Respublikasining davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etishga tayyorlash.

Iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etish talab, qoida va Nizomlari bilan tanishtirish, ularni oldingi yillarda davlat stipendiyalari sovrindorlari bo'lgan bakalavr, magistr va aspirantlar bilan uchrashuvlarini o'tkazish, tanlovlarda ishtirok etish dastur va rejalarini ilmiy rahbar – talabalar hamkorligida ishlab chiqish, dastur va rejalarning bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish.

Iqtidorli talabalar bilan 1 – kursda olib borilgan ishlarni umumiylashtirish. OTM ilmiy-metodik ishlar boshqarma (bo'limi), IYoA, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, gurux murabbiylari, ilmiy rahbarlar va iqtidorli talabalarning faoliyatlariga baho berish.

2 – kursda taxsil olayotgan talabalar bilan olib boriladigan tadbirlar tizimi

Iqtidorli talabalarni Respublikamizda o'tkaziladigan fan olimpiadalarida ishtirok etishga tayyorlash. Iqtidorli talabalarni Respublika fan olimpiadalarida ishtirok etish talab, qoida va tartiblari bilan tanishtirish, fan olimpiadalarini sovrindorlari bilan uchrashuvlarini o'tkazish, fan olimpiadalarida ishtirok etish dastur va rejalarini ilmiy rahbar – iqtidorli talaba hamkorligida ishlab chiqish hamda ularni bajarilishini ta'minlash.

Iqtidorli talabalarni Xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etishga tayyorlash. Iqtidorli talabalarni Xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etish talab, qoida va tartiblari bilan tanishtirish, Xalqaro fan olimpiadalarini sovrindorlari bilan uchrashuvlarini o'tkazish, bunday olimpiadalarida ishtirok etish dastur va rejalarini ilmiy rahbar – iqtidorli talaba hamkorligida ishlab chiqish, hamda ularni bajarilishini ta'minlash.

Iqtidorli talabalarni Respublika Xukumati yosh – olimlarni qo'llab-quvvatlash davlat grantlari tanlovlarida ishtirok etishga tayyorlash. Iqtidorli talabalarni Respublika Xukumati ilmiy ishlar bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarga ajratayotgan grantlar namunalari, ularda ishtirok etishning Nizom va talablari bilan tanishtirish, bunday grantlar sohibi bo'lgan yosh olimlar bilan uchrashuvlarini o'tkazish, grantlarda ishtirok etish dastur va rejalarini ustozlar va shogirdlar hamkorligida ishlab chiqish va ularning bajarilishini ta'minlash.

Iqtidorli talabalarni turli Xalqaro jamg'armalarning grantlarda ishtirok etishga o'rnatish va tayyorlash. Iqtidorli talabalarni turli Xalqaro jamg'armalarning grantlarda ishtirok etish talab va qoidalari bilan

tanishtirish, bunday grantlar sohibi bo'lgan yosh olimlar bilan uchrashuvlarini o'tkazish, grantlar ishtirok etish dastur va rejalarini ishlab chiqish, hamda ularni bajarilishini ta'minlash.

Iqtidorli talabalarni Respublika Xukumati, vazir-liklar, turli jamg'armalar, Qo'shma korxonalar va tashkilatlar tashkil etadigan ko'rgazmalarda ishtirok etishga o'rgatish. Iqtidorli talabalarni Respublika Xukumati, vazirliklar, turli jamg'armalar, Qo'shma korxonalar va tashkilotlar tashkil etadigan ko'rgazmalarda ishtirok etishning tartib, talab va qoidalari bilan tanishtirish, bunday ko'rgazmalarda ishtirok etgan olim va mutaxassislar bilan uchrashuvlarini o'tkazish, ko'rgazmalarda ishtirok etish dastur va rejalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ta'minlash.

Iqtidorli talabalarni Xalqaro jamg'armalar, turli kompaniyalar va xorijiy mamlakatlar tashkil etadigan ko'rgazmalarda ishtirok etishga o'rgatish. Iqtidorli talabalarni Xalqaro jamg'armalar, turli kompaniyalar va xorijiy mamlakatlar tashkil etadigan ko'rgazmalarda ishtirok etishning tartib, talab va qoidalari bilan tanishtirish, bunday ko'rgazmalarda ishtirok etgan olim va mutaxassislar bilan uchrashuvlarini o'tkazish, ko'rgazmalarda ishtirok etish dastur va rejalarini ishlab chiqish va bajarish.

Iqtidorli talabalarni ommaviy vositalardan ilmiy ish mavzulariga oid fan va texnikaning so'nggi yutuqlari haqida ma'lumotlarni qidirib topishga o'rgatish va ulardan samarali foydalanishini tashkil etish. Iqtidorli talabalarni ilmiy, ilmiy-texnik va referativ jurnallardan foydalanish, hamda internet tarmog'idan ilmiy mavzularga oid so'nggi yutuqlar e'lon qilinadigan manbalarni qidirib topish, saralash va samarali foydalanishga o'rgatish, bunday ishlarni bajarilishi ustidan taxlil va nazorat o'rnatish.

Iqtidorli talabalarga turli vositalardan olingen yangiliklar asosida o'zlarining ilmiy ish mavzulariga doir ma'lumotlar bankini yaratib borishga o'rgatish. Ilmiy asarlar, maqolalar, konferentsiya materiallari, tezislар, patent, ixtiro, internet axborotlari, reklamalar, ko'rgazma materiallar va boshqalardan foydalanib o'zlarining ma'lumotlar banklarini yaratish, ularni doimiy ravishda to'ldirib borish, saqlash va foydalanish, ushbu maqsadlarda elektron pochta va mavjud tarmoqlardan samarali foydalanishga o'rgatish, yaratilgan banklarini tizimga solishda uslubiy yordam tashkil etish.

Iqtidorli talabalarni ilmiy manbalarda ko'rilgan masala (ilmiy muammo)larni qo'yilishi, yo'nalish va mavzuning dolzarbliji, yangiligi va maqsadini taxlil va bayon qilishga o'rgatish. Iqtidorli talabalarni bir nechta ilmiy adabiyotlar – maqolalarda ko'rilgan masala – echilgan muammolarning qo'yilishi, mazularning yangiligi, dolzarbliji va maqsadlarini taqqoslab bayon qilishga, ularni rivojlanish ketma-ketligi bo'yicha uzlusiz joylashtirishga o'rgatish.

Iqtidorli talabalarni ilmiy manbalarda ko'rilgan masala (ilmiy muammo)larni echish usullari va olingen natijalarini taxlil va bayon qilishga o'rgatish. Iqtidorli talabalar o'zlarining ilmiy yo'nalishi va mavzulariga doir manbalarda ko'rilgan masalalarni echish usullari va olingen natijalarini og'zaki va yozma bayon qilish hamda ularni taqqoslab rivojlanish ketma-ketligi bo'yicha uzlusiz joylashtirish malakasiga ega bo'lishadi.

Iqtidorli talabalarni ilmiy manbalarda keltirilgan ishlarning xulosa va tavsiyalarni taxlil va bayon qilishga o'rgatish. Iqtidorli

talabalar o'zlarining ilmiy yo'nalishi va mavzulariga doir manbalarda keltirilgan ishlarning xulosa va tavsiyalarni og'zaki va yozma bayon qilish, ularni rivojlanish ketma-ketligi bo'yicha uzlusiz joylashtirish malakasiga erishadi.

Iqtidorli talabalarni ilmiy manbalarda olingan natijalarni ilmiy va amaliy ahamiyatlarini taxlil va bayon qilishga o'rgatish. Iqtidorli talabalar o'zlarining ilmiy yo'nalishi va mavzulariga doir manbalarda keltirilgan natijalarni ilmiy va amaliy ahamiyatlarini og'zaki va yozma bayon qilish, taqqoslash va rivojlanish ketma-ketligi bo'yicha uzlusiz joylashtirish malakasini egallaydi.

Iqtidorli talabalarni adabiyotlardagi ilmiy ishlarni (ilmiy maqolalar) to'liq o'rganib, taxlil va bayon qilishga o'rgatish. Iqtidorli talabalarga o'zlarining ilmiy yo'nalishi va mavzulariga doir ishlarning dolzarbligi, yangiligi, maqsadi, muammolarni hal etish usullari, olingan natijalar, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, tavsiya va xulosalarni ilmiy asoslanganlik ko'rsatkichlarini bayon qilish, ularni taqqoslash va turli ko'rsatkichlari bo'yicha uzlusiz ketma-ketligini tuzish malakasiga ega bo'lishadi.

Iqtidorli talabalar bilan 2 – kursda olib borilgan ilmiy ishlarni baholash. Iqtidorli talaba bilan OTM ilmiy-metodik ishlar boshqarma (bo'limi), iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, guruh murabbiylari va ilmiy rahbar hamkorlikda amalga oshirilgan ishlari baholanadi, iqtidorli talabaning 3 – kursda bajaradigan ishlarining dastur va rejali taxlil qilinadi.

Yuqori kursda taxsil olayotgan iqtidorli talabalar bilan olib boriladigan tadbirlar tizimi

Ilmiy rahbarlarni bakalavriyat yo'nalishida taxsil olayotgan iqtidorli talabalari ilmiy seminarlarini tashkil etish. Ilmiy rahbarlarning bakalavriyat yo'nalishida taxsil olayotgan iqtidorli talabalari ilmiy seminarlarining yo'nalishi, ish tartibi va rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash, seminarlarda iqtidorli yoshlar - magistlar, doktorantlar va boshqalarning namunali ma'ruzalar qilishlarini tashkil etish. Bunda iqtidorli talabalarni har 2 – 3 oyda bir marta olib borayotgan tadqiqotlari to'g'risida oraliq ma'ruza qilishi belgilanadi, ma'ruzada asosiy e'tibor tasdiqlangan yo'nalish va mavzuning dolzarbligi, yangiligi, ishning maqsadi, masala – muammolarni echish usullari, olingan natijalar, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, xulosa va tavsiyalarni ketma-ket va to'liq yoritishga qaratiladi. Tasdiqlangan reja va belgilangan vazifalarni bajarilishi ustidan taxlil va nazorat o'rnatiladi.

Bir nechta ilmiy rahbarlarning bakalavriyat yo'nalishida tahsil olayotgan iqtidorli talabalari bilan umumiy ilmiy seminarlar tashkil etish. Umumiy ilmiy seminarlarning yo'nalishi, ish tartibi, reja va jadvallarini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda magistlar, doktorantlar va boshqalarning namunali ma'ruzalar qilishlarini inobatga olish, ma'ruzalarni seminar a'zolari ilmiy ish mavzulariga imkon qadar yaqin bo'lislini inboatga olish.

Iqtidorli talabalarni iqtidorli yoshlar ilmiy seminarlari va ilmiy ishlar ximoyalardida ishtirok etishlarini tashkil qilish. OTMdha turdosh yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilgan iqtidorli yoshlarning va professor-o'qituvchilarning ilmiy seminarlari, bitiruv malaka ishlari va magistlik dissertatsiyalari ximoyalari hamda Ixtisoslashgan ilmiy Kengashlarning majlislarida ishtirok etishlarini tashkil qilish.

Yuqorida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish iqtidorli talabalarning bilim doirasini kengaytirib, ilmiy ma'ruza qilish hamda ilmiy muzokaralarda ishtirok etish, tajriba va malakasi ortib borishiga olib keladi.

Iqtidorli talabalarni bakalavriyat yo'nalishi bitiruv malakaviy ishlariga rahbar va ish mavzularni tasdiqlash, ishni bajarish dasturlarini ishlab chiqib joriy etish.

Bitiruv malaka ishini bajarish reja va dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ularni bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish.

Odatda bitiruv malaka ishi rahbari etib iqtidorli talabaning ilmiy ishlari rahbari – ilmiy rahbar tayinlangani hamda ishning mavzusi iqtidorli talabaning ilmiy ishlari yo'nalishi va mavzusi bilan bog'liq bo'lgani maqsadga muvofiq. Bunday holat iqtidorli talabalarning ilmiy faoliyatlarini uzlusiz davom ettirishlariga katta imkoniyat yaratadi.

Iqtidorli talabani bitiruv malaka ishini belgilangan muddatlarda bajarilishini tashkil etish. Iqtidorli talabani bitiruv malaka ishiga tegishli adabiyotlarda ko'rilgan muammolarning dolzarbliji, yangiligi va tadqiqotlarning maqsadlari, masalalarini hal etishning usullari, olingan echimlarning mohiyati, ularni mantiqan to'g'riliqi, natijalarning ishonchhliligini asoslaganligi, umumiy xulosa va tavsiyalarni taxlil qilish, taqqoslash va tizimga solib bayon qilishga o'rgatish.

Tadbirni bajarish natijasida iqtidorli talaba ilmiy ishlarni to'liq tahlil qilish, natijalarini takomillashib borish ketma-ketligini tuzib uzlusiz shaklda bayon qilish, xulosa va tavsiyalarni taqqoslash malakalarini egallaydi.

Iqtidorli talaba bitiruv malaka ishiga tegishli adabiyotlarni taxlil etishini rejalashtirish va uslubiy yordam ko'rsatish. Bitiruv malaka ishini tasdiqlangan reja asosida bajarilishini nazorat qilish. Ishda ko'rilgan muammolarning echimlarini taxlil qilish, mavjud echimlar bilan taqqoslash, echimlarning ilmiy va amaliy ahamiyatlariga baho berish, olingan echimlardan kelib chiqadigan tavsiya va xulosalarini umumlashtirish. Bitiruv malaka ishini taqriz va muhokamalardan o'tkazish.

Iqtidorli talabani ilmiy ishi mavzusiga doir adabiyotlar tahlillaridan xulosalar chiqarish, ishning maqsad va vazifalarini belgilashga o'rgatish. Iqtidorli talaba adabiyotlar tahlillaridan umumiy xulosalar keltirib chiqarishi, o'zining ilmiy ishi tadqiqotlarining maqsad va vazifalarini belgilash va ularni yozma bayon qiladi. Natijada iqtidorli talabada bajarmoqchi bo'lgan ilmiy ishining maqsad va vazifalarini ilmiy adabiyotlarda keltirilgan natijalar bilan uzlusiz bog'liqligi, ularning davomiyligini asoslash, ta'minlash va bayon qilish malakasi shakllanadi.

Iqtidorli talabani ilmiy ishning dolzarbliji va yangiliklarini asoslash va bayon qilishini tashkil etish. Iqtidorli talabaga ilmiy ishi mavzusining dolzarbliji va yangilagini asoslash va bayon qilishga o'rgatish va vazifani bajarishini tashkil etish.

Iqtidorli talabaga ilmiy ishida ko'rildigan muammo(lar)ni hal etishning zamonaviy usul(lar)ini belgilashida uslubiy va amaliy yordam berish. Iqtidorli talabaga ilmiy ishida qo'yilgan muammo(lar)ni hal etishning nazariy usullarini o'rganishini va o'zining mavzusiga tegishli tadqiqotlarning bajarishini tashkil etish. Ilmiy tajribalar o'tkazishning maqsad, vazifa va usullarini belgilash, hamda tegishli

vositalardan foydalanish tajribalarini o'rgatish, tajriba tadqiqotlarni bajarish uchun tegishli imkoniyatlarni yaratib berish.

Natijada iqtidorli talaba ilmiy ishda qo'yilgan muammo(lar)ni hal etishning usullarini belgilash, nazariy izlanishlarni amalga oshirish, tajriba tadqiqotlarni o'tkazish vositalaridan foydalanishni o'rganish va tajriba sinovlarini o'tkazish malakalarini egallaydi.

Iqtidorli talabani davlat standartlari va turli spravochniklarga kiritilgan kattaliklardan foydalanishga o'rgatish. Iqtidorli talabani O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan davlat standartlariga va Xalqaro standartlarga hamda turli spravochniklarga kiritilgan talab, ta'rif, qoida, ko'satkich, kattalik va boshqa qiymatlardan foydalanishga o'rgatish. Tadbirlar natijasida iqtidorli talabalar kerak paytda davlat standartlari va turli spravochniklardan foydalanish malakasiga ega bo'lishadi.

Iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalari tanlovlarda faol ishtirok etishlarini tashkil etish. Iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalari da'vogalarining ichki tanlovlarda faol ishtirok etishlarini tashkil etish.

Iqtidorli talabalarning 3 – kursda o'qish davomida amalga oshirgan ilmiy faoliyatini baholash, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish. Iqtidorli talabalar bilan OTM ilmiy-metodik ishlar boshqarma (bo'lim)i, iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, guruh murabbiylari va ustozlar hamkorligida amalga oshirilgan ishlar baholanib, ilmiy rahbar va iqtidorli talabani 4 – kursda bajaradigan ilmiy ishlar dastur va rejalarini taxlil qilinadi.

Bitiruvchi iqtidorli talabalar bilan olib boriladigan tadbirlar tizimi

Iqtidorli talabani Xalqaro va Respublika tanlov hamda ko'rgazmalarda ishtirok etishini tashkil qilish. Bajarilayotgan ilmiy ishlarning natijalari asosida Xalqaro va Respublika ko'rgazmalari talablari bo'yicha materiaillar tayyorlash va ishtirok etishni tashkil qilish. Tanlovlar jumlasiga Respublika Xukumati iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratayotgan davlat grantlari va Xalqaro jamg'armalarning grantlarini kiritish mumkin.

Iqtidorli talabani Xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida ishtirok etishini tashkil qilish. Iqtidorli talabaga Xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarini talablari asosida ilmiy ma'ruzalarning materiallarini tayyorlash va ma'ruza qilishga o'rgatish.

Iqtidorli talabani ilmiy maqolalar, davlat patentlari va mualliflik guvohnomalari talabnomalari tayyorlashga o'rgatish. Iqtidorli talaba erishgan natijalari asosida ilmiy maqola tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi davlat patent idorasi Nizomlari asosida davlat patenti va mualliflik guvohnomalari olish uchun talabnomalar tayyorlash malakasini egallaydi.

Iqtidorli talabani o'quv rejasidagi amaliyotlarni o'tashga maqsadli yuborilishini tashkil etish. Iqtidorli talabani o'quv rejasida belgilangan tanishuv, o'quv, ishlab chiqarish va boshqa amaliyotlarni o'tash joylarini tanlashda uning ilmiy ishi mavzusi, dastur va rejalarini inobatga olish.

Amaliyot o'tash joylarida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib:

- ilmiy ishi uchun zarur ma'lumotlar bankini yaratish usul va tartiblarini o'rgatish;
- aniq vazifalarni belgilash;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, umumlashtirish, turli qonuniyat va xulosalarni keltirib chiqarish:
 - yaratilgan ma'lumotlar bankidan ilmiy ishida samarali foydalanish malakasiga ega bo'lishga o'rgatish.

Iqtidorli talabani bajargan ilmiy ishi natija, xulosa va tavsiyalarini tegishli joy (korxonalar)da sinab ko'rish va tadbiq etishga o'rgatish. Iqtidorli talabada ilmiy ishdan olingen natijalar – turli qiymatlar, qonuniyatlar, xulosa va tavsiyalarni:

- ilmiy adabiyotlarda keltirilgan natijalar bilan taqqoslash va samaralarni qiyosiy baholash;
- etarlicha asoslanganligini zamonaviy metod, uskuna va jihozlar yordamida sinab ko'rish;
- joy (korxona)larda – amaliyot sharoitida sinab ko'rish;
- turli idora va korxonalar bilan ilmiy ish natijalarini amaliyotga tadbiq etish shartnomalarini tuzish malakalarini shakllantirish.

Iqtidorli talabaga O'zbekiston Respublikasi, Xorijiy mamlakatlar va Xalqaro jamg'armalarning innovatsion loyihamarida ishtirok etish tartib va qoidalarini o'rgatish.

Iqtidorli talabaga ilmiy ishi natijalarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini o'rgatish. Iqtidorli talabaga ilmiy ishi natijalari iqtisodiy samaradorligini baholashning nazariy, tajriba va amaliyotda sinab ko'rib baholash usullarini o'rgatish. Ilmiy ish yo'nalishi va mavzusiga tegishli soxa ko'rsatkichlari iqsodiy samaradorligini baholash usullari keltirilgan normativ xujjatlar va ilmiy asoslagan nazariy usullar. Korxonalarda qo'llaniladigan ishlab chiqarish rentabelligini baholash usullari, zamonaviy texnika va texnologiyalarda sinovlar o'tkazish.

Iqtidorli talabaga O'zbekiston Respublikasi, Xorijiy mamlakatlar va Xalqaro jamg'armalarning innovatsion loyihamarida ishtirok etish tartib va qoidalarini o'rgatish. Ishni O'zbekiston Respublikasi Xukumati innovatsion loyihamarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratadigan grantlarda ishtirok etish Nizomlari, amaldagi Qonun va qoidalar. Xorijiy mamlakatlarning va Xalqaro jag'armalarning innovatsion loyihamarida ishtirok etish tartib va talablari asosida tashkil etish.

Iqtidorli talabani ilmiy ishlari natijalarini xorijiy mamlakatlarning nufuzli jurnallari va Internet jurnallarda chop etishga o'rgatish. Iqtidorli talabani xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy jurnallari va Internet jurnallari talablari asosida maqola, tezis, annotatsiya va boshqa materiallar tayyorlashga o'rgatish.

Iqtidorli talabani ilmiy ish bajarishda etakchi olimlar, mutaxassislar, ijodiy (ishchi) guruhlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va o'zining ijodiy (ishchi) guruhlarini tashkil etishga o'rgatish. Iqtidorli talabani ilmiy ish bajarishda etakchi olimlar, mutaxassislar va ijodiy (ishchi) guruhlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va keyinchalik mustaqil ravishda ijodiy (ishchi)

guruqlar tuzib ular bilan hamkorlikda ish olib borishga o'rgatish.

Iqtidorli talabani bakalavriyat yo'nalishi bitiruv ishini yakunlashini tashkil etish.
Iqtidorli talabani bakalavriyat yo'nalishi bitiruv malaka ishini:

- natijalarini umumlashtirish va yozma bayon qilish;
- to'liq ma'ruza qilish;
- ichki va tashqi muhokamalardan o'tkazishini tashkil etish.

Iqtidorli talabaning bakalavriyat yo'nalishida o'qish davomida bajargan ilmiy ishlari hisobotini tayyorlash. Iqtidorli talaba bajargan ilmiy ishida erishgan natijalarini taxlil qilishi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlariga baho berishi, xulosa va tavsiyalarini umumlashtirishi hamda ishning umumiyligi hisobotini tayyorlashini tashkil etish.

Bajarilgan ilmiy ishning hisobotini muhokamalardan o'tkazish. Bajarilgan ilmiy ish hisobotiga olim va mutaxassislarning taqrizlarini olish, tegishli kafedra va ilmiy seminarlarning muxokamalaridan o'tkazish.

Iqtidorli talabalarni milliy vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish, ularga olimlar va mutaxassislar bilan muloqat madaniyati, adabiyotlardan foydalanish, ilmiy ishlarni bayon qilish, muhokamalardan o'tkazish, ilmiy ishlarga taqriz berishda va boshqalarda ilmiy etikaga amal qilishga o'rgatish. Iqtidorli talabalarni mamlakatimizning ilm-fan, madaniyat, texnika, texnologiya, sanoat, ekologiya, meditsina va boshqa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ustivor yo'nalish Oliy ma'lumotlilar tayyorlash sifatini oshirish

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish ilmiy tadqiqot ishlarni natijadorligi oshirish

Yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fani innovatsion infratuzilmasini shakllantirish

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ta'sirchanligini oshirish

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyutmachilarini faol jalb etish soxalarida ilmiy ishlarni olib borib yuksak natijalarga erishishga yo'naltirish. Ularda ilmiy muzokaralar olib borish, ilmiy ishlarni baholash, xulosa va tavsiyalar keltirib chiqarishda ilmiy etika va talablarga amal qilish xususiyatini shakllantirish.

Iqtidorli talabalarning bakalavriyat yo'nalishida o'qish davomida bajargan ilmiy faoliyatini baholash.

Iqtidorli talabalar bilan OTM ilmiy-metodik ishlarni boshqarma (bo'lim)ining, OTM iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i, fakultet dekanlarining, kafedra mudirlarining, gurux murabbiylarining hamkorlik faoliyatlariga alohida baho berish. Ilmiy rahbar-iqtidorli talaba hamkorliklari natijari va ilmiy rahbarlarning iqtidorli talaba tayyorlash mahoratlarini baholash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xar bir kurs uchun berilgan tadbirlarni bajarilishi natijasida quyidagi ishlarni amalga oshiriladi:

- 1.Oliy ma'lumotloilar tayyorlash sifatini oshirish.
- 2.Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish.
- 3.Ilmiy tadqiqot ishlarini natijadorligi oshirish
- 4.Yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fani innovatsion infratuzilmasini shakllantirish.
- 5.Ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini oshirish.
- 6.Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyutmachilarini faol jalb etish.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent sh 2019y 6 may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida. Toshkent sh 2019y 8 oktyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy majlisga Murojaatnomasi. Toshkent 2020 y 24 yanvar.
4. Saifnazarov I., Nikitchenko G., Qosimov B. Ilmiy ijod metodologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: Yangi asr avlod. 2004.
5. Haydarov F. I., Ergashov M., Isyanov R. G., Sharipov Sh. S. Oliy ta'lim muassalarida talabalar ilmiy faoliyatini tashkil qilish tizimi. T.: TDPU, 2010.
6. Isyanov.R.G. Mamatov.D. Qurbanova.G.B. Ustoz-shogird faoliyati metodologiyasi. GulDu., 2021.